

## ASHTARXONIYLAR SULOLASI DAVRIDA BUXORO XONLIGINING IJTIMOY-IQTISODIY HAYOTI. UBAYDULLAXONNING PUL ISLOHOTI

*Tilakova Nasiba Tavakal qizi*

*Buxoro Davlat Pedagogika Instituti, Pedagogika va ijtimoiy fanlar fakulteti, Tarix ta'lim yo'nalishi, 2-kurs talabasi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Ashtarxoniylar sulolasi davridagi Buxoro xonligining ijtimoiy-iqtisodiy hayoti, savdo munosabatlari va Ubaydullaxon tomonidan o'tqazilgan pul islohoti haqida ma'lumot beriladi.

**Kalit so'zlar:** Ashtarxoniylar, Buxoro, Subhonqulixon, Ubaydullaxon, Ubaydullanoma, qo'shbeqi, jizya vaqf.

Ashtarxoniylar davrida o'zbek jamiyatidagi ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar shariat va odat huquqlari asosida rivojlanib borgan. Jumladan, qishloq xo'jaligidagi huquqiy odatlar suv, yer o'lchamlari, ularni yuritishda odat huquqiga rioya qilish, hamma joyda yagona, hatto bir odatga emas, qaysi geografik hududda qanday odat bo'lsa, o'shanga rioya qilish haqidagi ko'rsatmalarni o'z ichiga olgan. Bunga Badi Devonning "Majma' al-arqam" asarida keltirilgan ma'lumotlar misol bo'ladi: "Agar amir ulufa uchun jangchilarga viloyat yerlaridan suyurg'ol yoki tanho sifatida sovg'a qilgan bo'lsa, mushrif bu yerlarni mamlakat hukmdori va odatlariga muvofiq daftarga yozishi kerak. Buxoroda yerlarning miqdorini o'lchash jariblar orqali bo'lgani uchun tanoblar sonini yozish kerak, yerlarni paykallar bilan o'lchash qabul qilingan bo'lsa, paykal deb yozish kerak, "qo'sh ho'kiz", "juftigov" yer o'lcham miqdori qabul qilingan bo'lsa, shunday, suvning miqdori yer o'lchov miqdori qilib belgilangan bo'lsa, suv miqdor belgisi asosida yozish lozim, deyiladi.

Ijtimoiy munosabatlarda yurtchilik odati ham mavjud bo'lib, bu odat qarzini to'lay olmagan qarzdorning qarzlarini uning qarindoshlari o'zaro bo'lib olib to'lashlari bilan belgilanadi. Bundan bosh tortgan qarindosh lozim hollarda o'zi ham ana shunday yordam olish huquqidan mahrum bo'lgan. Shuningdek, o'zaro yordam odati ham bo'lib, bu qahatchilik yoki tabiiy ofat oqibatida o'z mol-holini yo'qotgan, qiynalib qolgan qarindoshlarga qoramollar berib yordam ko'rsatish odatini bajarishdan bosh tortgan qarindosh zarur bo'lganda o'zi ham shunday yordamdan mosuvo etilgan. Hamkorlik odati ham keng tarqalgan bo'lib, jamoa yoki qarindoshlar o'rtasida ko'proq qo'l mehnati talab qiladigan ishlarni bajarishda, masalan, beda o'rish, quduq yoki hovuz qazish, uy-joy qurishda (hashar deyiladi) yordam ko'rsatishdan iborat. Undan bosh tortish, o'z navbatida, shunday yordam olish huquqidan mahrum qilgan.

Ashtarxoniy hukmdorlari Buxorodagi mahalliy o'zbek qabila boshliqlari kuchiga tayanmay, ularning qo'llab-quvvatlashlarisiz mamlakatni boshqara olmas

edilar. Shuning uchun ko'plab yerlarni shahzodalar, ulamo va sayidlar, fuqarolik va harbiy soha ma'murlariga xizmat evaziga suyurg'ol qilib berish bilan birga, harbiy boshliqlarga ham yer mulklarini shu tarzda sovg'a qilish yanada avj oldi. Huquqshunos olim Z.Muqimovning fikricha, "tanho" deb atalgan bunday in'omning huquqiy jihatdan suyurg'oldan farqi shundan iborat ediki, yer mulkini olgan shaxs unga ega hisoblanmasdi, uning huquqi shu yerni ishlaguncha dehqonlardan ma'lum darajada soliq yig'ib olish bilan chegaralangan.

Yer egaligida ham shayboniylar davridagi munosabatlardan deyarli farq qilmas edi. Yer egaligi bu davrda davlat yerlari - amlok, xususiy yer egaligi, ya'ni mulk va vaqf yer egaligi shaklida bo'lgan. Siyosiy muhim o'zgarish shu bilan xarakterlanadiki, markaziy hokimiyatning zaiflashuvi nihoyatda kuchayib, yer mulklari yurtlarga bo'linib, ularni, asosan, qabila zodagonlari suyurg'ol tarzida idora qilishardi. Harbiy yoki boshqa xizmatlari uchun taqdim etiladigan bu hadyadan tashqari, harbiylarga davlatga qarashli yerlardan do'konlar, karvonsaroylar, tiyul va tanho tarzida berilar va bu deyarli temuriylar va shayboniylar davridagi mulkiy munosabatlarga o'xshash edi. Xonning o'ziga qarashli mulki xos yoki xossa deb atalgan. Bulardan tashqari, feodallarning xususiy mulki, ozod dehqonlarning yer-suv mulklari mavjud edi.

Ashtarxoniylar davrida Markaziy Osiyo musulmon aholisi orasidagi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarda islomga aloqasi bo'lmagan odatlarning ham mavjudligi ko'zga tashlanadi. Masalan, dehqon don ekinlarini o'rib, yanchib bir uyum xirmon qilgach, bu uyum sarkorning kelishiga qadar daxlsiz hisoblangan. Uning vazifalaridan biri g'allaning soliq sifatida olinadigan qismini o'lchashdan iborat edi.

Ammo, odatga ko'ra, sarkor o'z vazifasiga kirishmasidanoq don yetishtirgan dehqon uning bir qismini o'z qishlog'iga yoki mahalla masjidiga yoxud o'zi e'tiqod qiladigan biror mozor shayxi hissasi (haqqi)ga ajratgan. Qur'onda bu haqda hech narsa deyilmagan bo'lsa-da, yangi yetishtirilgan hosil shu yo'l bilan poklab olinadi, deb hisoblangan. Vaqt o'tishi bilan Markaziy Osiyoda Xudo yo'liga olinadigan bu ushur solig'i xiroj va tanob kabi oddiy davlat soliqlariga aylandi, birinchisi ekin maydonlaridan, ikkinchisi bog'lardan, uzumzorlardan, poliz va bedazorlardan olingan hosilning beshdan bir, hatto uchdan bir qismigacha to'g'ri kelgan.<sup>1</sup>

Har bir madrasa unga asos solgan kishi tomonidan berilgan yoki aholi o'z xohishi bilan in'om etgan va ko'p hollarda qo'zg'almas mulk tarzida bo'lgan vaqfga ega bo'lgan. Vaqfni boshqarish mutavallilarga topshirilgan bo'lib, ular mulkning foydalanilishi, qo'riqlanishi, ijaraga berilishi, vaqf daromadlarining bo'linishi ustidan nazoratni amalga oshirganlar. Ko'pincha, daromadning taqsimlanishi vaqfni vasiyat qilgan shaxs tomonidan tuzilgan vaqfnomada ko'rsatilgan. Ana shu yorliqqa asosan, mutavalli vaqf mulkining bir yillik yangi daromadidan o'ndan bir hissasini xizmat haqiga olgan. Shu

<sup>1</sup> Akbar Zamonov "Buxoro xonligi tarixi" Toshkent 2021.

bilan birga, madrasa mutavallilarining ishini asta-sekinlik bilan nazorat qilish maqsadida bosh mutavalli mansabi joriy qilindi. Hukumat unga maosh to'lamagan, odatga ko'ra, mutavalliboshi o'ziga bo'ysungan har bir mutavalli yillik daromadining o'ndan bir qismini olgan.

XVI-XVII asrlarda amalda bo'lgan ko'plab soliq turlarini uch asosiy guruhga bo'lish mumkin: yirik yer egalari majburiyatlari yasoq; davlatga to'lanadigan asosiy soliqlar; harbiy sharoit vujudga kelganida yoki davlat pulga muhtoj bo'lib qolganda olinadigan yig'implardir. Ashtarxoniylar davrida ham maxsus qonunlar to'plamlari tuzilib, unda davlat ishlari, musulmonlar bilan o'zaro munosabatlarda, dorug'alar tayinlashda, xiroj, ushr, juz'ya kabi soliqlar yig'ib olishda nimalarga asoslanish lozimligi yoritib berilgan.

Tarxon yoki darxon bu davr soliq tizimidagi yangiliklardan bo'lgan. Bundan tashqari, xon qishloq egasining ma'lum xizmatlari evaziga maxsus farmon bilan butun feodal renta solig'ini yoki uning bir qismini kechib yuborgan. Tarxondan farq qiluvchi bunday huquq har yili xonning yangi farmoni bilan tasdiqlanib turilishi lozim edi. Shu bilan birga, davlat va armiya ishlarida iqtisodiy tanglik vaqtlarida bir necha soliqni ilgaridan yig'ib olish usuli ham amalda bo'lib, shunday huquqni beradigan holat "barot" deb atalgan.

Ashtarxoniylardan Buxoro xoni Subhonqulixon hukmronligi yillarida (1681-1702) soliq siyosati ana shunday tus olib, tarixiy manbalarning ko'rsatishicha, 500 tanga soliq undiriladigan qishloqdan "barot" asosida 3500 tanga undirilgan. Garchi bu soliqlar davlat iqtisodining negizini tashkil qilsa-da, qishloq va shahar ahliga, oddiy aholiga uni to'lash og'ir yuk bo'lib, bunday tizim xalqning noroziligiga olib kelgan.

Mamlakatdagi siyosiy nizolar ham asosiy iqtisodiy inqirozga olib keluvchi omillardan biri edi. Soliq yuki ko'p holatda xalqning ahvolini yomonlashtirgan. Subhonqulixon davrida uning o'g'illari o'rtasida Balx hokimiyati uchun kurash yanada avj olgan. Mahalliy amaldorlar davlat xazinasiga ham soliqlar to'lamaganlar. Bu holat markaziy hokimiyatning Balxdagi mavqei nihoyatda zaiflashib ketganidan va mahalliy siyosiy kuchlarning, xususan, yirik amirlar mavqei oshib ketganidan dalolat berardi. Xivaliklarning Zarafshon va Qashqadaryo vohalariga talonchilik yurishlarini uyushtirib, shahar va qishloqlarni vayronaga aylantirdilar. Oqibatda sug'orish ishlari izdan chiqib, dehqonchilikka putur yetdi. Bozorlarda qimmatchilik boshlanib, xalqning ahvoli yomonlashdi. Mana shunday sharoitda Subhonqulixon davlatning bo'shab qolgan xazinasini to'ldirish maqsadida qo'shimcha soliqlarni joriy etib, bir necha yillik soliqlarni oldindan yig'ib olishga buyruq bergan. Markaziy hokimiyatni kuchaytirish maqsadida soliqlarni ko'paytirib, qo'shin sonini oshirdi.

Subhonqulixonning o'g'li Ubaydullaxon mamlakatdagi yirik yer egalari bo'lgan jo'ybor shayxlarining soliq imtiyozlarini ham bekor qildi. Ammo, Ubaydullaxonning bu harakatlari unga norozi kuchlarning ko'payishiga xizmat qildi, xolos. Ubaydullaxon

(1702-1711) davriga kelib ijtomoiy-iqtisodiy vaziyat murakkablashdi. Birinchidan, ma'muriy boshqaruvga o'rta tabaqani, ya'ni hunarmandlar va savdogarlarni jalb etadi, ikkinchidan, markaziy hokimiyatni kuchaytirish uchun yirik yer egalarning imtiyozlarini qisqartiradi (masalan, Jo'ybor xojalarini soliq to'lashga majbur etadi), uchinchidan, pul islohotini amalga oshiradi (1708). Ubaydullaxonning faoliyatida pul islohoti o'ziga xos ahamiyat kasb etadi. Buni amalga oshirish bilan u davlat xazinasini to'ldirishni, bebosh bo'lib qolgan amir va beklar, urug'-qabila boshliqlari bilan kurashda o'z mavqeini oshirish va mahalliy hokimlarning ayirmachilik (mustaqil bo'lishga intilish) harakatlarini bartaraf etib, markaziy hokimiyatni mustahkamlashga intiladi. Ubaydullaxon davlat xazinasini mutasaddisi Xoja Bolta, moliyaviy idora boshlig'i Mehtar Shafe bilan maslahatlashgach, 1708-yilda pul islohoti amalga oshirilib, yangi kumush tangalar zarb qilinadi. Ammo yangi kumush tangananing tarkibidagi kumushning miqdori 9% dan oshmas, oldingi tangaga nisbatan 3-4 marta kam edi. Yangi tangalar muomalaga chiqarilib, unga majburiy qiymat o'rnatiladi va oldingi tangalar bilan bir xilda tovarlar uchun to'lanadi. Bir vaqtning o'zida soliqlar natura holida, ya'ni g'alla va boshqa mahsulotlar bilan yig'iladi. Jamoatchilik buni qabul qilmaydi. Buxoroning savdogarlari yangi tangalarni qabul qilishdan bosh tortib, do'konlarini yopib, barcha mollarni undan olib ketadilar. Shaharda savdo-sotiq to'xtatiladi. Hunarmandlar o'z mahsulotini qadrsizlangan pulga sotishdan bosh tortadi, xom ashyo bo'lmagandan so'ng ustaxonalarda ish to'xtab qoladi.

Urush yoki hosilsizlik emas, balki hukumatning iqtisodiy siyosati tufayli shunday holat vujudga keladi va shahar aholisining g'alayon ko'tarishiga olib keladi. Bu haqda Mir Muhammad Amin Buxoriy o'zining "Ubaydullanoma" asarida guvohlik berishicha, qiyin ahvolga tushgan va norozi bo'lgan aholi xon saroyiga kelib shikoyat qilmoqchi bo'lgan, ammo ularni arkka kiritishmagan va shikoyatini qabul qilishmagan. Shunda xaloyiq ularni tinglaydigan odamga murojaat qilgan va bu kishi xalqning harakatiga boshchilik qilgan. "Ubaydullanoma"ga ko'ra, uning taxallusi "Devonai Panjsadmani" bo'lgan, haqiqiy ismi ma'lum emas. Devonai Panjsadmani boshchiligidagi xaloyiq xonning eng yaqin odamlaridan sanalgan Ma'sum otaliqning uyiga borgan. Ma'sum otaliq ularni tinchlashtirishga urinib xonga shikoyatlarini yetkazishga va'da bergan. Ammo qo'zg'olonchilar uning so'zlariga ishonishmagan va Devonai Panjsadmani boshchiligida Registon maydoniga borib arkning darvozalariga tosh ota boshlashgan. Qurollanmagan oddiy xalqni maydondan quvib yuborish qiyin bo'lmagan. Devonai Panjsadmani va yana uch kishi qatl qilingan. Ubaydullaxon hukumati savdogarlarga o'ldirish tahdidi bilan o'z do'konlarini ochishni va yangi pulni avvalgi qiymati bo'yicha qabul qilishni buyurgan. Lekin savdogarlar xonning farmoyishini bajarmagan. Oxir-oqibatda xon yon berishga majbur bo'lgan va yangi tangalar eskisining yarmiga teng bo'lishi to'g'risida amr qilgan. Shu tariqa, majburiy qabul qilingan tangananing qiymati ikki baravariga kamaytirilgan.

Xalq qo'zg'oloni tufayli hukumat yon bergan bo'lsa-da, umuman pul islohotidan ko'pchilik zarar ko'rgan, yirik savdogarlar kasodga uchragan. Norozilik davom etib, 1709-yilda bunday harakatlari boshqa viloyatlarga ham tarqalgan. Hatto Ubaydullaxonning taxtdan ag'darilishi va o'rniga ukasi Abulfayzxonning taxtga o'tirishi xavfi kuchaygan. Buxoroning xavfsizligi uchun mutasaddi etib tayinlangan Xudoyorbiy mang'it (mang'it sulolasi asoschisi Muhammad Rahimbiyning bobosi) Qorako'ldagi qo'shimcha kuchlarni yordamga chaqirgan.

Bu paytda Qorako'lning hokimi bo'lib turgan Muhammad Yor eshikog'aboshi do'rmon qabilalar lashkaridan iborat kuchlarni Buxorb shahriga keltirib, arkning darvozasi oldiga joylashtirgan. Shahar aholisi bundan xavfsirab, hamma mahallalarda kun-u tun navbatchilik o'rnatilib, qurol-yarog' ko'tarishga qurbi yetganlar qurollantirilgan. Shahar atrofidagi aholi qo'rqqanidan shahar ichkarisiga kirib olgan. Narx-navo birdan ko'tarilib, talon-toroj boshlanib ketgan. Aholi o'rtasida "Xudoyorbiy qo'shbegi isyonchi qo'shin va amirlar bilan til biriktirib, Abulfayzxonni taxtga chiqarmoqchi, xivaliklar shaharga hujum qilmoqchi" degan mish-mishlar tarqalgan. Bu harakatlar bostirilgan bo'lsa-da, barqarorlik uzoq davom etmagan. Xonlikda iqtisodiy va siyosiy ahvolning yomonlashuvi ichki ziddiyatlarni kuchaytirib yuborgan.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Qahramon Rajabov, Sulaymon Inoyatov "Buxoro tarixi" Toshkent - 2016
2. Akbar Zamonov "Buxoro xonligi tarixi" Toshkent - 2021
3. Herman Vamberi "Buxoro yoxud Movarounnahr tarixi" Toshkent – 2019
4. O'zME. Birinchi jild. Toshkent 2000 yil
5. Abulg'oziy Bahodirxon "Shajarayi Turk" Toshkent – 1992
6. Mir Muhammad Amin Buxoriy - "Ubaydullanoma". Buxoro - 2019